

2023-yil 21-noyabr

Yilning eng faol yosh kimyogari aniqlandi



Ma'lumki, kimyo tarmog'ida faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli mutaxassislarning kasbiy va bilim darajasini aniqlash, ular orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, innovatsion g'oya, loyiha, va texnologiyalarini hayotga tatbiq qilish maqsadida "Yilning eng faol yosh kimyogari" ko'rik-tanlovi o'tkazib boriladi.



Bugun "O'zKimyoSanoat" AJ hamda Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi bilan hamkorlikda "Ammofos-Maksam" AJda "Yilning eng faol yosh kimyogari" ko'rik-tanlovining Respublika bosqichi bo'lib o'tdi.



Unda “O‘z kimyo sanoat” tizim korxonalari, hamda Toshkent kimyo-texnologiya universitetida bo‘lib o‘tgan mazkur tanlovning ilk bosqichlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan 8 nafar yosh, faol mutaxassislar o‘z innovatsion g‘oyalari va loyihalari bilan ishtirok etdilar.



Tanlovda yosh mutaxassislar ilmiy izlanishlari, yurtimiz kimyo sanoatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion g‘oya va takliflari, yangi ishlanma va kashfiyotlari bilan o‘z kasbiy mahoratlarini namoyon etishdi.

Murosasiz o‘tgan bellashuvning natijalari quyidagicha bo‘ldi

1-o‘rin - Ahror Bozorov - “Birinchi rezinotexnika zavodi”- MCHJ XK xodimi

2-o‘rin- Shodiyaxon Azimova -Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsenti

3-o‘rin- Jonibek Akbarov “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ xodimi

G‘olib va ishtirokchilarga tashkilotchilar tomonidan diplom, maxsus statuetka, qimmatbaho esdalik sovg‘alari topshirildi.

"O‘zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/yilning-eng-faol-yosh-kimyogari-aniqlandi>